

## FILLAR OILASI VAKILI: MAMONTLAR

*Maxmudova Nodira Abduvoxit qizi*

*O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi ilmiy xodimi*

*O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi*

[tabiatmuzeyi1876@umail.uz](mailto:tabiatmuzeyi1876@umail.uz)

### Аннотация

Mazkur maqola Mamontlar (*Mammuthus*) haqidagi ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan. Shu bilan bir qatorda maqolada O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi ekspozitsiyasida namoyishga qo‘yilgan mamont qoldiqlari haqida alohida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** *mamont, fillar oilasi, Sibir, Yoqutiston (Saxa), qoldiqlar, arxaik odam, jun po‘stinli mamont, Mammuthus meridionalis.*

### Аннотация

Данная статья содержит информацию о мамонтах (*Mammuthus*). А также в статье отдельно изложена информация об останках мамонта, выставленных в экспозиции Государственного музея природы Узбекистана.

**Ключевые слова:** *мамонт, семейство слоновых, Сибирь, Якутия (Сакха), окаменелости, архаичный человек, шерстистый мамонт, Mammuthus meridionalis.*

### Annotation

This article contains information about the mammoth (*Mammuthus*). The article also contains information about the mammoth remains on exhibitions of the State Museum of Nature of Uzbekistan.

**Keywords:** *mammoth, elephant family, Siberia, Yakutia (Sakha), fossils, archaic man, woolly mammoth, Mammuthus meridionalis.*

**Mamont** (lotincha: *Mammuthus*) — fillar oilasiga mansub har qanday qirilib ketgan sut emizuvchi hayvon. Mamontlarga mastodontlar, gomfoterelar, stegodontidlar kabilari kiradi. Pleystotsen epoxasi yoki olimlar tilida “muzlik davri” ning ikkinchi yarmida Yevropa, Shimoliy Osiyo va Janubiy Amerikada yashagan. Ularning suyak qoldiqlari Tosh davrida odamlari yashagan joylardan, yaxshi saqlangan jasadlari Sibir va Alyaskaning muz qatlamlaridan topilgan. Mamontning topilgan qoldiqlaridan tiklangan tulum va skeleti Rossiya Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti muzeyiga (Sankt-Peterburg shahri) namoyishga qo‘yilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi ekspozitsiyasiga Sharqiy Sibirning shimolida joylashgan Saxa (Yoqutiston) Respublikasi hududidan topilgan mamont

bolasining son suyagi, bir dona jag‘ tishi, teri bo‘lagi va teri osti yog‘ qatlami namunalari doimiy ko‘rgazma tarzida joylashtirilgan.

Genetik ma‘lumotlarga ko‘ra, mamontlar va Osiyo fillari Afrika fillariga qaraganda bir-biri bilan qarindoshlik darajasi yaqinroq hisoblanadi. Ammo, mamontlar hozirda yashovchi fillardan spiral o‘ralgan tishlari va sovuq muhitga yashashga moslashgan ko‘plab belgilarning rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Mamontlarni afsonaviy jonzotlar qatoriga kiritish mumkin. Chunki ular Sibir tub aholisining folklorida ham aks etadi. Ilm sohasiga esa “mamont” so‘zi ilk bor XVII asr boshida Yevropada kirib kelgan bo‘lib, u Sibir hududidan topilgan mamont qoziq tishi sababli “*Russiko-Anglikum*” lug‘atiga qayd etilgan edi. “*Amerika merosi lug‘ati*” ga ko‘ra, “mamont” so‘zi, kelib chiqishi G‘arbiy Sibirdagi Mansi tillar oilasiga mansubligi taxmin qilinadi, ya‘ni, Mansi tilida “man-ont” so‘zi mamont tishlariga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, “dunyo shoxlari” degan ma‘noni bildiradi.

Mamontning gavdasi o‘lchovlarining ulkanligi o‘ta hayratlanarli. Uning bo‘yi 2.5—3.5 m, hamda og‘irligi 7 t gacha yetgan; oyoqlari esa gavdasiga nisbatan kalta, juni uzun bo‘lgan. Og‘zidan chiqib turadigan tishlarining uzunligi 4 m, og‘irligi kamida 100 kg gacha kelgan. Bu tishlar yordamida Mamont qishda qor ostidan ozig‘ini kovlab olgan. Jag‘ tishlari yordamida dag‘al o‘simliklardan iborat ozig‘ini maydalagan.

Odamlarning mamontlar bilan o‘zaro aloqasi haqidagi dalillar taxminan 1.8 million yil oldin topilgan. Mamontlarning arxaik odamlar tomonidan ov qilinganligi haqida belgi va dalillar mavjud ko‘plab mavjud bo‘lib, ularning bir qismi hisoblanmish *Mammuthus meridionalis*ning suyaklari Dmanisi hududi (Gruziya)dan topilgan.

Odamlarda bu jonivorlar haqida kengroq tasavvurga ega bo‘lishi, hamda tabiatning naqadar betakrorekanligini xis qilishi maqsadida, mamontlarning Jun-po‘stinli turiga taalluqli qoldiq topilmalari O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi ekspozitsiyasidan joy olgan (1-2-rasmlar).



**1-2-rasmlar. O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi ekspozitsiyasidagi mamont  
bolasining  
son suyagi, jag‘ tishi, jundor terisi va teri yog‘ qatlami.**

Jun-po‘stinli mamont (3-rasm) filga o‘xshab ketgan va yer yuzining aksar qismida, hozirgi Yevropa, shimoliy Osiyo hamda Shimoliy Amerikada kun kechirgan, ammo bizning kunlarga qadar yetib kelmagan.



**3-rasm. Jun po‘stinli mamont.**

Jun po‘stinli mamont balandligi 3 m dan 3.7 m gacha, vazni esa 5500 tonnadan 7300 tonnagacha bo‘lgan. Junining uzunligi esa 70 smgacha yetgan. U juda g‘ayritabiiy burama dandon tishlarga ega bo‘lib, ularning uchi bir-biriga qarab turgan. Tanasini uzun jun qoplab olgani uchun mamontlar ko‘rinishi bilan hozirgi fillardan farq qilgan. Juni juda uzun bo‘lganidan hatto yerga tegib turgan. Yelkasida katta o‘rkachi bo‘lib, xuddi tuyalarniki singari issiqlik hamda suv deposi vazifasini bajargan. Quloqlarining o‘lchami tanasiga nisbatan juda kichkina bo‘lgan. Ustidagi jun po‘stini ham sovuq iqlimda o‘zini bimalol his etgishga to‘sqinlik qilmagan. Asosiy ozuqasi o‘t-o‘simliklar bo‘lgan, ya’ni mamontlar o‘txo‘r hayvonlar hisoblangan. Ushbu turdagi mamontlarning qirilib ketishining asosiy sababi – bu ular yashashga moslashgan oxirgi muzlik davrining tugashi, ya’ni sovuq iqlimning o‘rnini asta-sekin issiq iqlim egallab borishi bo‘lgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Garutt, W.E., Gentry, Anthea; Lister, A.M. (1990). "[Case 2726: \*Mammuthus Brookes\* 1828 \(\*Mammalia Proboscidea\*\) proposed conservation and \*Elephas primigenius\* Blumenbach, 1799 \(currently \*Mammuthus primigenius\*\) proposed designation as the type species of \*Mammuthus\*, and designation of a neotype](#)". Bulletin of Zoological Nomenclature. 47 (1): 38–44. [doi:10.5962/bhl.part.2651](#).
3. Serikov, Iu.B., Serikova, A.Iu. (April 2005). "[The Mammoth in the Myths, Ethnography, and Archeology of Northern Eurasia](#)". *Anthropology & Archeology of Eurasia*.
4. [John Bell](#), Travels from St Petersburg in Russia to diverse parts of Asia, Edinburgh, 1806, pages 383-386.
5. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)